



XALQ DEPUTATLARI JIZZAX VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 27-iyul

VII-31-175-3-0-K/26

Jizzax viloyati

Sharof Rashidov tumanidagi “Toqchilik” mahalla fuqarolar yig‘inini bo‘lish hamda uning chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-sonli Farmoni, 2023-yil 21-dekabrda “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-sonli qarori ijrosini ta‘minlash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-yanvardagi PQ-35-sonli qarorining 19-bandi hamda Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi 48-sonli qaroriga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga muvofiq qabul qilingan 2024- yil 20-maydagi 294-sonli qarori talablariga muvofiq, Jizzax viloyati hokimligi huzuridagi mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish masalalari bo‘yicha idoralararo doimiy komissiyasining xulosasi hamda O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Jizzax viloyati boshqarmasining 2026-yil 9-iyundagi 01-06/2161-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. Jizzax viloyati hokimligi huzuridagi mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish masalalari bo‘yicha idoralararo doimiy komissiyasining xulosasi asosida kiritilgan taklif ma‘qullansin.

2. Sharof Rashidov tumani “Toqchilik” mahallasini bo‘lish orqali yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘iniga “Mustaqillikning 35 yilligi” deb nom berish haqida aholining takliflari ma‘qullansin.

3. Sharof Rashidov tumani “Toqchilik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan yangi tashkil etilayotgan “Mustaqillikning 35 yilligi” mahallasi uchun ajratilgan

yer maydonining loyihasi 1-ilovaga, "Mustaqillikning 35 yilligi" mahallasining chegarasini belgilash tavsifi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. O'zbekiston mahallalari uyushmasining Jizzax viloyati boshqarmasi (B.Soatov), «mahalla yettiligi» tarkibiga kiruvchi mas'ul davlat organlarining viloyat boshqarma boshliqlari hamda Sharof Rashidov tumani hokimi (A.Ashurov) bilan birgalikda:

- mahalla fuqarolar yig'inini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash hamda o'zgartirish ishlarining mazmun-mohiyati to'g'risida aholi o'rtasida keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib borsin;

- mahallani nomlashda aholining fikrini inobatga olgan holda hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish choralarini ko'rsin;

- fuqarolarni yangi tashkil etilgan hudud bo'yicha ro'yxatga olish bilan bog'liq masalalarda o'zaro hamkorlik qilish choralarini ko'rsin.

5. O'zbekiston mahallalari uyushmasining Jizzax viloyati boshqarmasi (B.Soatov), viloyat Adliya boshqarmasi (A.Ergashev), viloyat Davlat soliq boshqarmasi (A.Anvarov), Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi boshlig'i (N.Siddiqov) hamda Sharof Rashidov tumani hokimi (A.Ashurov) bilan birgalikda:

- mahalla chegaralari sxemasini har bir mahalla binosiga o'rnatish;

- bo'lingan hamda qayta tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig'inining ta'sis va tashkiliy hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish choralarini ko'rsin.

6.O'zbekiston mahallalari uyushmasining Jizzax viloyati boshqarmasi (B.Soatov), viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (G'.Qodirov) va Sharof Rashidov tumani hokimi (A.Ashurov) bilan birgalikda mahalla fuqarolar yig'inlari uchun muhr hamda shtamlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini ta'minlasin.

7.Kadastr organlariga:

- mahalla fuqarolar yig'ini chegaralarini aniq aks ettiruvchi va tavsiflovchi xaritalarni tayyorlasin;

- hududdagi fuqarolarning kadastr hujjatlarini qayta rasmiylashtirish choralarini ko'rsin.

8.Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Ahmedov), «mahalla yettiligi» tarkibiga kiruvchi mas'ul idoralarning viloyat boshqarma boshliqlari hamda Sharof Rashidov tumani hokimi (A.Ashurov) bilan birgalikda:

- yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig'inini bino-inshoot, zarur inventar va kompyuter texnikasi bilan ta'minlasin;

- «mahalla yettiligi» a'zolari uchun tegishli shtat birliklarini ajratish va ularni moliyalashtirish choralarini ko'rsin.

9. Viloyat hokimligi huzuridagi mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish masalalari bo'yicha idoralararo doimiy komissiyasiga mazkur jarayonlarda yuzaga keladigan nizoli masalalarni qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqish vazifasi yuklatilsin.

10. Jizzax viloyati hokimligi Axborot xizmati (A.Binoqulov), O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Jizzax viloyati teleradiokanali davlat muassasasi (E.Shermonov), «Jizzax haqiqati» - «Джизакская правда» gazetasi (B.Nazarov) mazkur qaror ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta'minlasin hamda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash vazifasi viloyat hokimining birinchi o'rinbosari Z.Azimov zimmasiga yuklatilsin.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi A.Rahmonqulov zimmasiga yuklatilsin.

13. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**Xalq deputatlari Jizzax
viloyati Kengashi raisi**



**UZAKOV
BAYRAMBEK
UZAKOVICH**

Xalq deputatlari Jizzax viloyati
Kengashining
2026-yil 27-iyuldagi
VII-31-175-3-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Sharof Rashidov tumani "Toqchilik" mahalla fuqarolar yig'inini bo'lish bo'yicha loyiha taklifi



Xalq deputatlari Jizzax viloyati
Kengashining
2026-yil 27-iyuldagi
VII-31-175-3-0-K/26 -son qaroriga
2-ilova

**Jizzax viloyat Sharof Rashidov tumanidagi
Mustaqillikning 35 yilligi mahallasining chegarasini
belgilash
TAVSIFI**

2026-yil “29” U.D.H.

Sh.Rashidov tumani.

Mustaqillikning 35 yilligi mahallasining chegarasi quyidagicha ta’riflandi: Sharof Rashidov tumanidagi Jizzax-Paxtakor ko’chasi hamda Sokinlik ko’chasi kesishgan joy boshlang’ich 1-nuqta deb qabul qilindi. (WGS-84 koordinatalar tizimida shimoliy kenglik $40^{\circ}11'27,581''N$ sharqiy uzunlik $67^{\circ}52'37,019''E$).

1. nuqtadan chegara chizig’i Jizzax-Paxtakor ko’chasi bo’ylab shimoliy yo’nalishda 775 metr masofa o’tib Jizzax-Paxtakor ko’chasi bilan kesishgan joyda 2-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik $40^{\circ}11'36,931''N$, sharqiy uzunlik $67^{\circ}53'7,2''E$).

2. nuqtadan chegara chizig’i Jizzax-Paxtakor ko’chasi bo’ylab shimoliy yo’nalishda 712 metr masofani o’tib, Taraqiyyot ko’chasi bilan kesishgan joyda 3-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik $40^{\circ}11'52,076''N$, sharqiy uzunlik $67^{\circ}53'31,874''E$).

3. nuqtadan chegara chizig’i Taraqiyyot ko’chasi bo’ylab shimoliy-sharqiy yo’nalishda 238 metr masofani o’tib, Taraqiyyot 1-tor ko’chasi bilan kesishgan joyda 4-nuqtaga tutashadi (sharqiy kenglik $40^{\circ}11'49,93''N$, sharqiy uzunlik $67^{\circ}53'41,574''E$).

4. nuqtadan chegara chizig’i Taraqiyyot 1-tor ko’chasi bo’ylab sharqiy yo’nalishda 369 metr masofani o’tib, Mirzo Ulug’bek ko’chasi bilan kesishgan joyda 5-nuqtaga tutashadi (sharqiy kenglik $40^{\circ}11'38,616''N$, sharqiy uzunlik $67^{\circ}53'37,071''E$).

5. nuqtadan chegara chizig’i Ulug’bek ko’chasi bo’ylab sharqiy yo’nalishda 287 metr masofani o’tib, Mirobod ko’chasi bilan kesishgan joyda 6-nuqtaga tutashadi (sharqiy kenglik $40^{\circ}11'35,43''N$, sharqiy uzunlik $67^{\circ}53'48,397''E$).

6. nuqtadan chegara chizig’i Mirobod ko’chasi bo’ylab sharqiy yo’nalishda 59 metr masofani o’tib, Mirobod ko’chasi bilan kesishgan joyda 7-nuqtaga tutashadi (sharqiy kenglik $40^{\circ}11'31,562''N$, sharqiy uzunlik $67^{\circ}53'45,731''E$).

7. nuqtadan chegara chizig’i Mirobod ko’chasi bo’ylab sharqiy yo’nalishda 50 metr masofani o’tib, Mirobod ko’chasi kesishgan joyda 8-nuqtaga tutashadi (sharqiy kenglik

40°14'26,816"N, sharqiy uzunlik 67°48'2,464"E).

8. nuqtadan chegara chizig'i Mirobod ko'chasi bo'ylab janubiy yo'nalishda 450 metr masofani o'tib, dala yo'li bilan kesishgan joyda 9-nuqtaga tutashadi (sharqiy kenglik 40°11'18,841"N, sharqiy uzunlik 67°53'35,826"E).

9. nuqtadan chegara chizig'i dala yo'li bo'ylab janubiy yo'nalishda 1038 metr masofani o'tib, dala yo'li bilan kesishgan joyda 10-nuqtaga tutashadi (janubiy kenglik 40°11'18,452"N, sharqiy uzunlik 67°52'51,855"E).

10. nuqtadan chegara chizig'i dala yo'li bo'ylab janubiy yo'nalishda 45 metr masofani o'tib, Sokinlik ko'chasi bilan kesishgan joyda 11-nuqtaga tutashadi (janubiy kenglik 40°11'19,823"N, sharqiy uzunlik 67°52'51,654"E).

11. nuqtadan chegara chizig'i Sokinlik ko'chasi bo'ylab janubiy yo'nalishda 375 metr masofani o'tib, Marjonsuv ko'chasi bilan kesishgan joyda 12-nuqtaga tutashadi (g'arbiy kenglik 40°11'19,807"N, sharqiy uzunlik 67°52'35,861"E).

12. nuqtadan chegara chizig'i Marjonsuv ko'chasi bo'ylab g'arbiy yo'nalishda 97 metr masofani o'tib, Sokinlik ko'chasi bilan kesishgan joyda 13-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 40°11'22,788"N, sharqiy uzunlik 67°52'35,41"E).

13. nuqtadan chegara chizig'i Sokinlik ko'chasi bo'ylab g'arbiy yo'nalishda 85 metr masofani o'tib, Jizzax-Paxtakor ko'chasi bilan kesishgan joyda dastlabki 1-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 40°11'25,655"N, arqiy uzunlik 67°52'37,42"E).